

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FAKULTETI**

**TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

# **QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK: O'TMISHI, BUGUNI, ISTIQBOLLARI**



**Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami**

**2020-yil 6-noyabr**



**"FIRDAVS-SHOH" NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2020**

УДК 821,512,133,09 (062)  
ББК 83.3 (5Ў) я73  
Қ 37

*Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2020-yil 24-dagi 4-sonli yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

#### Taqrizchilar:

- Bahodir Karimov** – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi  
**Xurshid Do'stmuhammad** – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

**To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.**

#### Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov	f.f.d., professor, ToshDO'TAU rektori
Akmal Saidov	O'zR FA akademigi, yu.f.d., professor
Muhammadjon Xolbekov	f.f.d., professor (SamDCHTI)
Uzoq Jo'raqulov	f.f.d., professor (ToshDO'TAU)
Ulug'bek Hamdamov	f.f.d. (ToshDO'TAU)
Gulnoz Xalliyeva	f.f.d., professor (O'zDJTU)
Qosimboy Ma'murov	f.f.n., professor (ToshDO'TAU)
Dilnavoz Yusupova	f.f.d., dotsent (ToshDO'TAU).
Bahodir Xoliqov	f.f.f.d., ToshDO'TAU ( <i>mas'ul muharrir</i> )
Mahmadiyor Asadov	ToshDO'TAU tayanch doktoranti ( <i>mas'ul kotib</i> )
Zebo Sabirova	ToshDO'TAU o'qituvchisi ( <i>mas'ul kotib</i> )

**Qiyosiy adabiyotshunoslik: o'tmishi, buguni, istiqbollari (matn)** Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari тўплами. – Т.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2020. – 284 bet.

**ISBN 978-9943-6695-8-1**

Mazkur anjuman materiallariga filologiyaning bugungi kunda dolzarb deb qaralayotgan qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va komparativistika masalalariga oid ilmiy maqola va tezislar kiritilgan. To'plamdan o'rin olgan maqolalarda qiyosiy adabiyotshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o'zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy filologiya va folklorshunoslik, o'zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o'rganilishi, o'zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalar yoritilgan. Filologiya sohasiga oid ilmiy nashrlari bilan ilm ahli nazariga tushgan ustoz-olimlar: filologlar, pedagoglar, adabiyotshunos va tarjimashunoslar bilan bir qatorda, shu jabhalarda ilmiy kuzatishlarini endigina boshlagan tadqiqotchilar, doktorantlar va magistrantlarning ham tadqiqot natijalari mazkur to'plamda tartiblangan.

To'plam adabiyotshunoslik, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida tadqiqot olib borayotgan hamda shu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan, shuningdek, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanini o'qitishda oliy o'quv yurti talabalari uchun ham qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

УДК 821,512,133,09 (062)  
ББК 83.3 (5Ў) я73

**ISBN 978-9943-6695-8-1**

© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2020

## РЕАЛИЯЛАР (АМЕРИКАНИЗМЛАР) ТАРЖИМАСИ МУАММОСИ ВА УНИНГ ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ҲҚИТИШДАГИ ҲРНИ

*Азиза ЖАЛОЛОВА,  
Бухоро вилояти Гиждудон тумани 60-умумий ўрта таълим мактаби директори*

*Мансур БАБАЕВ,  
Бухоро шаҳар 25-умумий ўрта таълим мактаби директори  
Ўғилбой МАВЛОНОВА,  
Бухоро давлат университети катта ўқитувчиси*

*Аннотация:* Мақсуд мақолада "реалия" сўзининг маъноси, реалия тушунчаси, унинг эквивалентсиз лексика эканлиги ўрганилган. Бундан ташқари, тил ва маданиятларни солиштирилганда, реалияларнинг бошқа сўزلардан фарқи ажратиб кўрсатилган. Унинг фарқли томони, реалия ифодалайдиган предмет, тушунча, ҳодиса бир томондан халқ билан, бошқа томондан вақтнинг тарихий бўлаги билан яқин алоқаси мисолларда исботланган.

*Тилчи сўзлар:* реалия, эквивалентсиз лексика, неологизм, маданият, коннотатив сўзлар, маҳаллий реалиялар, даврий колорит.

*Аннотация:* В данной статье глубоко изучены значение слово "реалия", понятие реалии, и то, что она является без эквивалентной лексикой. Кроме этого, выделены различия реалий от других слов при сравнении языков и культур. Доказано в примерах близкое отношение предметов, понятий и событий выраженные реалиями с одной стороны с народам, а с другой стороны исторической частью времени.

*Ключевые слова:* реалия, без эквивалентная лексика, неологизм, культура, коннотативные слова, локальные реалии, периодическая окраска.

Мамлакатшуносликка йўналтирилган лексикани тадқиқ қилган рус олими Г.Д.Томахин америкача инглиз тили варианти тадқиқотида "денотатив реалия" ва "коннотатив реалия" атамаларини ишлатади. Денотатив реалиялар Г.Д.Томахиннинг таърифига кўра киёсланаётган маданиятда мос равишдаги сўзга эга бўлмаган ва ўша маданиятга ҳос предмет ҳамда ҳодисаларни белгилайдиган тил фактларидир. Коннотатив реалиялар денотативга тесқари равишда киёсланаётган маданиятнинг муқобил предметларидан бирор нарсаи билан фарқ қилмайдиган предметларни англатади.

Таржимашуносликда реалия сўзларни белгилаш учун тадқиқотчилар томонидан қуйидаги тушунчалар киритилган:

–эквивалентсиз лексика – тил доирасидан ташқари, шу тилга тааллуқли эквиваленти бўлмаган сўзлар (Г.В.Чернов, А.В.Фёдоров);

–экзотик лексика – географик ва тарихий реалияларни ифодаловчи лексик бирликлар (А.Й.Супрун);

–пробеллар (лакунлар) – бир халқ маданияти учун одатий, аммо бошқа маданиятда кузатилмайдиган ҳолатлар (И.И.Ревзин, В.Й.Розентсвейг);

–варваризмлар – хориж урф-одатлари, турмуши ва рўзгорига доир хусусиятларни тасвирлашга имкон берадиган ҳамда маҳаллий колоритни яратишга ёрдамлашувчи сўзлар (А.А.Реформатский) [5, 5];

–этномаданият лексикаси (этнолексемалар) – муайян бир халқнинг ўзига ҳос маданияти тўғрисида одамларнинг тарихий-этник жамоавийлиги сифатида билимлар тизимини тавсифловчи лексик бирликлар (Л.А.Шейман);

–алиенизмлар – экзотизмларнинг стилистик функциясини ифодалайдиган ҳаммага маълум бўлмаган тиллардаги сўзлар (В.П.Берков).

Баъзи тилшунослар барча миллий жамиятнинг давлат тузуми ва тарихининг ўзига ҳос фактларини, унинг географик муҳитини ўзига ҳослигини, ўтмиши ва ҳозирга тааллуқли рўзгорга доир буюмларни, этнографик ва фольклор тушунчаларни реалиялар (эквивалентсиз лексика) га тегишли ҳисоблайдилар.

Одатий реалиялардан ташқари тадқиқотчи қиёсланаётган тилларда ўхшаш тушунчаларнинг информацион мос келмаслигини аниқлаган ҳолда эмоционал-экспрессив обертонларда, ички сўз шаклларида, сўз маъноси компонентларида ўзининг моддий ифодасини топадиган ассоциатив реалияларни ажратиб кўрсатади.

С. Влахов ва С. Флоринлар реалияларни бир халқ учун ҳос, аммо бошқа халқ учун бегона бўлган маданияти, тарихи, турмуши учун ҳос объектларни атайдиган, сўз ва сўз бирикмаларини ўз ичига олган махсус ибора категорияси сифатида таърифлайдилар. Тадқиқотчилар таржима жараёнида реалияларга алоҳида ёндашиш лозимлигини таъкидлайдилар, чунки реалиялар миллий ва тарихий колоритни ифодалаб, ўзга тилларда аниқ бир муқобилга эга эмас.

Умуман олганда, юқорида келтирилган дефинициялар, биз кўриб чиқаётган “реалия-сўз” тушунчасини бошқа тил ва маданиятларда эквиваленти бўлмаган миллий, тарихий ҳамда рўзгорни тасвирловчи, “бегона” маданият элементларини ифодаловчи тил бирликлари сифатида тавенфлайди.

Лингвистика ва таржимашуносликдаги мавжуд “реалия” атамасини солиштириб, уни тил бирлиги сифатида кўриб чиқамиз. Реалия тил бирликларининг қайси категориясига тааллуқли деган саволга ягона бир фикр мавжуд эмас. Бироқ кўпчилик олимлар (А.В.Фёдоров, С.Влахов, С.Флорин ва б.) реалияларни семантик жиҳатдан баробар бўлган алоҳида сўзлар ва сўз бирикмалари билан ифодаланиши мумкин деб ҳисоблайдилар [2, 1308].

Сўз сифатида реалиянинг грамматик шакли унинг маълум бир нутқ қисмига тегишлилигига ва тилининг грамматик тузилишини ўзига ҳослигига боғлиқ. Тилшунослар С.Влахов ва С.Флориннинг кузатувларига кўра, кўпгина реалиялар от (сўз туркуми) бўлиб келади, чунки улар предмет ва ҳодисалар номини англатади. Шунингдек, реалия деб сифатдошларни ҳам ҳисоблаш мумкин, уларнинг маъноси бевосита реалия маъноси билан боғлиқ бўлади. Ясалмаган реалиялар (непроизводные реалии) нутқнинг бошқа қисмлари орасида жуда кам учрайди.

Таржимашунослик атамаси сифатида реалия мазмунини аниқлаш мақсадида уни лексиканинг бошқа синфлари фониди таҳлил қилиш зарур.

Реалиялар атамалар билан энг кўп умумий хусусиятларга эга. Реалиялар атамалар сингари кўпинча бир маънодаги, синонимлардан холи ва ҳодиса, тушунча, предметларни номлайдиган сўз бирикмаларини англатади. Икки синф орасида чет тилларига ҳос бирликлар, шунингдек, тарихий жиҳатдан маъноси чекланган бирликлар мавжуд.

Келиб чиқишига кўра реалиялар сўзларни табиий яратиш орқали вужудга келади, атамалар эса сунъий равишда, кўпинча лотинча ва грекча сўзлар асосида ёки мавжуд сўзларнинг ўзга маъно қасб этиши йўли билан яратилади.

Шуни таъкидлаш керакки, баъзи ҳолларда реалиялар атамаларга ўтиши ва аксинча ҳолат кузатилади; шунингдек, бир пайтнинг ўзида ҳам реалия, ҳам атама деб санаш мумкин бўлган бирликлар категорияси мавжуд. Шунинг учун тушунчаларни чегаралаш мақсадида матн мазмунига таяниш лозим.

Дунё тили ва маданиятларини солиштиришда мос келадиган ва мос келмайдиган унсурлар ажралиб туради. Маданиятнинг таркибий қисми саналган тил мос келмайдиган унсурлари сирасига киради. Солиштириладиган тиллар қанчалик ўзига ҳос бўлса, қанчалик унинг тарихида маданий алоқалар камроқ бўлса, шунчалик улар бир-биридан бутунлигича ёки қисман фарқ қилади. Мос келмайдиган унсурларга эквивалентсиз лексика билан белгиланадиган предметлар ва бир тилга ҳос сўзлар ҳамда бошқа тилда мавжуд бўлмаган ёки сўзларда фарқ қиладиган коннотациялар киради.

“Реалия” сўзи лотинча сўз бўлиб, “ашёвий, ҳақиқий” деган маънони англатади. Бу сўз билан биринчидан, сўзнинг номинатив тушунчаси учун асос бўлиб хизмат қиладиган моддий маданият предметлари ва иккинчидан, халқнинг маънавий қадриятлари ва урф-одатлари, мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий тузилиши ва маданий-ижтимоий анъаналари

билан боғлиқ абстракт моҳиятлар, яъни тили ўрганилаётган ўлканинг турмуши, маданияти ва тарихига алоқадор барча реал фактлар ифодаланади.

Филологияда икки хил реалия тушунчаси мавжуд:

1. реалия бошқа тилларда учрамайдиган маълум бир халқнинг ёки мамлакатнинг турмуш тарзи, маданияти ва тарихи учун хос бўлган предмет, ҳодиса ёки тушунчадир;

2. шундай предмет, тушунча ёки ҳодисани англатувчи сўз, шунингдек, шундай сўзларни ўз ичига олган сўз бирикмаси (фразеологизм, мақол, ҳикматли сўз) дир.

Реалия бу фақат муайян миллат ва халқларга тегишли бўлган моддий маданият ашёлари, тарихий фактлар, давлат институтлари номи, миллий ва фольклор қаҳрамонларнинг исмлари, мифологик мавжудотлар ва бошқа номлардир [5, 5]. Тилларни чоғиштирганда ушбу ҳолатларни англатувчи сўзларни эквивалентсиз лексикага киритадилар. Эквивалентсиз лексика бошқа маданиятда мавжуд бўлмаган ва қондага кўра бошқа тилга битта сўз билан таржима қилинмайдиган, ўзига тегишли тил доирасидан ташқарида муқобили бўлмаган тушунчаларни ифодалаш учун хизмат қиладиган сўзлар ҳисобланади.

Одатда, таржимонлар узун(кенг) таърифларга таянишга ва ўз неологизмларини таклиф қилишларига тўғри келади. Масалан, викрола – Victrola (муайян маркадаги аппарат; Victor – радио ва телеаппаратура ишлаб чиқарувчи фирма номи); букмекер – book-maker (пойга пайтида томошабинлар тикадиган пулни қабул қилувчи киши); родстер – roadster (уети очиладиган икки ўриндикли машина).

Эквивалентсиз лексика тилларни солиштирганда осон аниқланади, чунки унда мазкур тил томонидан воқеликнинг бўлиниб кетиш спецификаси ва маданиятнинг ўзига хослиги яққол намоён бўлади. Агар эквивалентсиз лексикага нафақат кундалик турмуш реалияси белгиларини, балки давлат сиёсий тузуми, халқнинг маданий ҳаёти ва ишлаб чиқариш турли соҳаларининг ўзига хос номланishiни киритсак, ҳар бир халқ тилидаги реалиялар сонн янада ошади.

Тил ва маданиятларни солиштирганда англанадиган (реалиядан ташқари) ва англатувчи (шаклдан ташқари) орасидаги фарқни ажратиб кўрсатиш мумкин. Англанадиганлар ўртасидаги фарқ қуйидаги ҳолатларда кузатилади:

1. Бир тил жамоасига хос реалия бошқасида мавжуд бўлмайди. Масалан, Am Drugstore – дорихона [3, 226]; Yellowpages – телефон маълумотномасининг сарик рангдаги қоғозли тижорат бўлими [3, 810].

2. Реалия икки тил жамоасида ҳам мавжуд бўлади, аммо бирида у алоҳида ёки махсус ҳолда ифодаланмайди. Масалан, Am.Cloverleaf – беда япроғи кўринишидаги автойўл чорраҳаси [1, 151].

3. Турли хил жамиятларда бир-бирга ўхшаш вазифалар ҳар хил реалиялар (турли хил реалияларнинг функционал ўхшашлиги) воситасида амалга оширилади. Масалан, Am.hotdog – иссиқ сосискали бутерброд [3, 255]; Am.soda fountain – музқаймоқ кафеси [3, 435].

4. Ўхшаш реалиялар функционал жиҳатдан фарқланади. Масалан, cuckoo's call – “какунинг сайраши” америкаликларнинг ишончига кўра, киз боланинг турмушга чиқишига неча йил борлигига ишора қилади, русларда эса инсоннинг қанча умр кечирishiни билдиради.

Қиёсий лингвоўлкашуносликда солиштирилаётган тилдаги сўзларнинг лексик маъносидан бутунлай ёки қисман фарқ қилувчи, тили ўрганилаётган мамлакатнинг тарихи, маданияти, иқтисоди ва турмуш тарзи билан боғлиқ предмет ёки ҳодисани ифодаловчи сўзлар реалиялар ҳисобланади.

Реалияда тил ва маданият ўртасидаги яқинлик намоён бўлади. Жамиятнинг моддий ва маънавий ҳаётида бўладиган ўзгаришлар тилда реалия вужудга келишига сабаб бўлади. Лексика ижтимоий ҳаётнинг барча ўзгаришларига ўз таъсирини кўрсатиши сабабли тилда янги реалияларнинг пайдо бўлиш пайтини аниқ айтиш мумкин.

Тилда “коннотатив сўзлар”ни лексик бирлиكنинг ўзига хос типни сифатида ажратиш шак-шубҳасиз мақсадга мувофиқдир, чунки коннотациялар янги сўзларга ҳамроҳлик қилувчи стилистик, эмоционал ва мазмуний фарқларда ўз-ўзидан мавжуд бўлмайди, улар сўз маъноларидан бирига боғланади.

Реалиянинг бошқа сўзлардан фарқли томони шундаки, реалия ифодалайдиган предмет, тушунча, ҳодиса бир томондан халқ билан ва бошқа тарафдан вақтнинг тарихий бўлаги билан яқин алоқаси ҳисобланади. Бунда миллий, маҳаллий ва тарихий колоритнинг реалияга ҳослиги кўриниб туради.

Маҳаллий диққатга сазовор жой номлари маҳаллий реалияга мисол бўлади. Бундай жойлар, ҳатто ўз худудидан ташқарида машҳур бўлишига қарамай (баъзан миллий маданият фондига кирган ҳолда), айнан ўша жой билан боғлиқ ҳолда эсланади. Масалан, *Cabildo* – Кабилдо (Янги Орлеандаги испан генерал губернаторининг собиқ резиденцияси), *Alcatraz* – Алкатраз (Сан-Франсиско яқинидаги шу номли оролда жойлашган собиқ қамоқхона) ёки *Freedom Trail* – “озодлик маршрути” (Шимолий Америка мустамлакаларининг мустақиллик учун кураши билан боғлиқ тарихий ёдгорликларни кўриш учун Бостон шаҳрининг марказий қисми бўйлаб ўтадиган сайёҳлик маршрути) [4, 346, 664].

Реалия алоҳида жамоа ёки муассаса доирасида чегараланган бўлиши ҳам мумкин. Асосан талабалар ва ҳарбийлар жарғони бундай реалияга бойдир. Баъзи бир жаргонизмлар локализм ва профессионализмлар даражасига ўтиб кетади.

Даврий юлорит ҳам реалияга ҳосдир. Маданият билан ҳамбарчас боғлиқ тил ҳодисаси сифатида ушбу лексик бирликлар жамият тараққиётидаги барча ўзгаришларга тез таъсир қилади. Улар орасидан неологизм, историзм ва архаизм реалияларини осонгина ажратиш мумкин. Масалан, 1950 – 1960 йилларда АҚШда ёш авлоднинг исёни тилда *beatnik*, *beatgeneration* (чарчаган, синган, кўнгли совиган авлод; битниклар) каби сўзларнинг пайдо бўлиши билан акс этади. 50-йилларда вужудга келган бу реалия, аввало неологизм сифатида қабул қилинди, кейин аста-секин бошқа тушунча *hippie* (хиппи, замонавий буржуа жамияти ахлоқи ва турмуш тарзини рад этувчи ҳамда ўз протекстини гайриодатий кийиниши ва феъл-атвори, ўзини тутishi билан ифода этувчи ёшлар) га алмашди.

1969 йиллар охирида АҚШнинг Массачусетс штатида жойлашган унча катта бўлмаган *Charraquiddick* (Чаппаквиддик) ороли номи машҳур бўлган. У ерда 1969 йил 18 июл кунини ярим тунда бир қарашда оддий кўрнадиган автоҳалокат юз берган. Сенатор Эдвард Кеннеди бошқараётган машина кўприкдан пастга кулаган ва у билан бирга бўлган котибаси Мери Копечни машинадан чиқа олмай чўкиб кетган. Бу ҳодисадан Эдвард Кеннедининг сиёсий рақиблари фойдаланишган ва АҚШ президентлиги лавозимига Эдвард Кеннедининг номзоди ҳақида гап борганда матбуот саҳифаларида Чаппаквиддик сўзи пайдо бўларди.

1970 йиллар охирида АҚШнинг кўпгина юқори лавозимидаги шахслари, шу қаторда конгрессменларнинг порахўрлик билан шугулланганлиги фош бўлди. ФҚБ жосуслари араб шайхлари кийимида уларга йирик миқдорда пул бериб қўлга олишган. Бу воқеа янги реалия *Abscam* (жиноятчилик билан курашиш бўйича махфий операциянинг қисқартирилган номи “*Arabscam*”) ни вужудга келтирди.

Реалия атамасининг кенг қўлланилишига қарамай, тадқиқотчилар на лингвистикада ва на методикада реалияни таърифловчи старлича аниқ тамойилларнинг йўқлигини ҳамда ушбу реалияларни белгиловчи тил бирликларининг хусусиятлари умуман ўрганилмаганлигини таъкидлашади.

Хорижий тилни ўрганаётганда эътиборни фақат грамматика, лексика, фонетика ва ёзишга эмас, балки ўрганилаётган мамлакат маданиятини ҳам унутмаслик лозим. Маданиятнинг турли жиҳатларини англамасдан туриб, тилнинг коммуникатив асосини ўзлаштириш жуда қийин.

Лингвомамлакатшунослик бу ўрганилаётган мамлакат тўғрисида маълум бир ахборот ва тилни ўрганишни назарда тутадиган филологик фан ҳисобланади. Ушбу фаннинг асосий мақсади талабага реалия (фақат шу маданиятга хос бўлган хусусият) ларни, коннотатив лексикани (сўзларнинг асосий маъноси бир хил, фарқи эса маданий-тарихий ҳолатлардан ташкил топган), мамлакат тўғрисидаги баъзи бир маълумотларни ва фразеологизмлар учрайдиган хорижий нутқни ўргатишдир.

Лингвистлар Й.М.Верещагин ва В.Г.Костомаров тилларни ўқитишда реалиялар таржимаси ҳақида қуйидаги фикрни айтадилар: "Икки миллий маданият ҳеч қачон бир-бирига тўлиқ мос келмайди, бу уларнинг ҳар бири миллий байналмилал унсурлардан ташкил топганидан келиб чиқади. Солиштирилаётган маданиятларнинг ҳар бир жуфтлиги учун мос келадиган (байналмилал) ва тафовутли (миллий) бирликлар турлича бўлади" [6, 38]. Шунинг учун уларнинг фикрига қараганда, машгулотлар пайти эътиборни нафақат тилнинг ўзига, балки миллий маданиятда мавжуд бўлмаган реалияларга қаратиш керак.

Хулоса қилиб айтганда, ўқитувчининг асосий вазифаси талабаларни нафақат ўрганилаётган тил ташувчилари, балки бошқа маданият вакиллари билан мулоқот қилишга тайёрлаш ҳисобланади. Шу билан бирга шунини таъкидлаш керакки, лингвомамлакатшуносликка доир материални машгулот пайтида етказиб бериш таълимнинг бошланғич босқичларида ҳам долзарб ҳисобланади. Чунки хориждаги турмуш, кизикарли маълумотлар, байрам ва анъаналар тўғрисидаги ҳикоялар ҳам болаларда, ҳам ёши катта кишиларда кизиктириш уйғотади. Буларнинг бари нафақат талабаларнинг дунёқарашини, балки тилни ўрганишга бўлган ижобий мотивацияни шакллантиради.

#### Адабиётлар

1. Cassel Popular English Dictionary. Over 11000 words. – London: England, Brockampton Press. 1997. – 151 p.
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М: Русский язык, 1990. – С.1308.
3. Мюллер Б.К. Англо-русский словарь (53000 слов). – Москва: Русский язык, 1988. – С. 226, 255, 435, 810.
4. Мюллер Б.К. Англо-русский словарь (53000 слов). – Москва: Русский язык, 1988. – С. 346, 664.
5. Томахин Г.Д. Реалия-американизмы. – Москва: Высшая школа, 1988. – С. 5.
6. Томахин Г.Д. Лингвострановедение: что это такое?/Г.Д. Томахин// Иностранные языки в школе. 1996. – № 6. – С.38.

## БИР ЭРТАКНИНГ УЧ ТАРЖИМА ВАРИАНТИ ХУСУСИДА

*Дилафрўз КАРИМОВА,  
Бухоро давлат университети*

*Аннотация: Ака-ука Гриммлар немис халқининг энг сеvimли эртакчи-этувчиларидир. Бироқ уларнинг нами нафақат немис ўқувчиларига, балки жаҳондаги барча халқларга танишдир. Чунки уларнинг эртаклари жуда кўп тилларга таржима қилинган. Мазкур мақолада ака-ука Гриммларнинг "Бир хумча шовча" эртакининг ўзбек тилига таржима вариантлари ҳақида сўз боради.*

*Казит сўзлар: мотив, давр графикаси, эртак бадиияти, менталитет, вариант таржима, микромаъна.*

*Аннотация: Братья Гримм-любимые сказочники немецкого народа. Однако их имя знакомо не только немцам читателям, но и всем народам мира, потому что их сказки переведены на множество языков. В данной статье рассматривается узбекский перевод сказки братьев Гримм "Горшочек каши".*

*Ключевые слова: мотив, старинная графика, сказочное искусство, менталитет, вариантный перевод, микротекст.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

## “QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK: O‘TMISHI, BUGUNI, ISTIQBOLLARI”

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida o'z ma'ruzasi bilan faol ishtirok etganligi uchun

*O'g'iloy Mavlonova*

# SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

Rektor



Sh. Sirojiddinov

2020-yil  
6-noyabr



<b>Rafiqjon ZARIPOV.</b> Kognitiv rivojlanish va tarjima jarayonida ikki tillilik va ko'p tillilikning rolli .....	194
<b>Гулрух КАХХОРОВА.</b> Юкламаларнинг таржима лугатларида берилиши .....	197
<b>Umida ABDULLAYEVA.</b> Translation strategies for advertising discourse texts: best known tv commercials in uzbek .....	200
<b>Hamza AVAZOV, Shuhrat XIDIROV.</b> The importance of translating authentic texts during the learning process .....	202
<b>Д.Б. АБДУКАЮМОВ, В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА.</b> Особенности и проблемы перевода художественных текстов .....	205
<b>Ализа ЖАЛОЛОВА, Мансур БАБАЕВ, Ўғиллой МАВЛОНОВА.</b> Реалиялар (американизмлар) таржимаси муаммоси ва унинг хорижий тилларни ўқитишдаги ўрни .....	208
<b>Дилафрўз КАРИМОВА.</b> Бир эртакнинг уч таржима варианты хусусида .....	212
<b>Дилноза САБУРОВА, В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА.</b> Таржимоннинг бир сўзи .....	215
<b>Муаттар МАҲМУДОВА.</b> Садриддин Салим Бухорийнинг таржимон бўлиб шаклланиш омиллари .....	217
<b>В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА.</b> О проблемах адекватности в преподавании перевода .....	219

## VI. ILMY AXBOROTLAR

<b>Mavlyuda GADOEVA.</b> Conceptual analysis of phraseological units with the somatism component in the system of non-related languages .....	223
<b>D.Sh. SHARIPOVA, M.A. GAYBULLAYEVA, Z. ADIZOVA.</b> Methods of developing skills and abilities in learning a foreign language.....	227
<b>Dilnoza SHARIPOVA, Malika OBLOKULOVA, Dilnoza ASKAROVA.</b> Some analysis and considerations about symbols.....	229
<b>Rano AKHMEDOVA.</b> Classification and lexical-semantic features of somatic phraseological units related to culture in english and uzbek languages .....	232
<b>Rano AKHMEDOVA, Inobat NARZIYEVA.</b> Classification of authentic materials and the role of their usage in foreign language lessons.....	234
<b>Фирюза ПАРЗУЛЛАЕВА.</b> Инглиз ва ўзбек тилларида “кўз” сўзининг полисемантиклиги .....	236
<b>Dilnoza HABIBULLAYEVA.</b> Jahon adabiyoti va tibbiyot .....	239
<b>B.S. ABDURAZAKOV</b> Some types of semantic correlates of phraseological configurations and its structural-semantic varieties .....	242
<b>R.A. ACHILOVA, M.T. BABAYEV, O.A. ATAMURADOVA.</b> Benefits of grammar in english classes .....	244
<b>Dilshoda MAMATOVA.</b> O'zbek talabalarining xitoy tili miqdor to'ldiruvchisini o'rganishini tadqiq qilish.....	246
<b>O'g'iloy MAVLONOVA.</b> Vaziyatli kinoya va misollar orqali uning tahlili .....	249
<b>Shahnoza KARIMOVA.</b> Poetik sintaksis haqida .....	251
<b>Dilnoza ZIYAYEVA.</b> Syntactical characteristics of english speech verbs.....	254
<b>Рисолат АЧИЛОВА.</b> Антономазияларнинг ўзбек бадиий асарларидаги ўрни .....	258
<b>Нозима ДЖУМАЕВА.</b> Инглиз ва ўзбек эртакларида ўхшаш вазифали сеҳрли предметлар талқини.....	261
<b>Shahnoza KARIMOVA, Dinara IBRAGIMOVA.</b> Og'irlik va uzunlik ma'nosidagi numerativlar .....	264
<b>Мохичехра ШИЯЗОВА.</b> Инглиз ва ўзбек никоҳ туйларида айтиладиган олқишларнинг го'явий-шаклий муштараклиги .....	266
<b>Меҳринисо ОЧИЛОВА.</b> Электрон лугат – лексикография ривожинингянги босқичи маҳсули .....	268
<b>Nilufar OCHILOVA.</b> “Do'nan” hikoyasida “ot” obrazi.....	274
<b>Дилёра БОБОНАЗАРОВА.</b> Дискурс анализ – как современный метод интерпретации информации .....	276
<b>Zarnigor KHAYATOVA.</b> Relationship between uzbek and english literature: ethno-cultural specificity of concept studies .....	278